

**ZO'RAVONLIK - PSIXOLOGIK FENOMEN SIFATIDA**

*Nazarova Muharram Yunus qizi*

*Oila va xotin qizlar ilmiy-tadqiqot instituti*

*1-kurs doktoranti*

**Annotatsiya.** Maqolada zo'ravonlikning ilmiy-psixologik tahlili yoritilgan bo'lib, uning vujudga kelishi, konstruktiv va destruktiv tomonlari, turlari yoritilgan.

**Kalit so'zlar.** Zo'ravonlik, Psixodinamik yondashuv, Sotsiodinamik yondashuv, Frustratsiya yondashuvi, Kognitiv-neoassotsiyaviy yondashuv, Affektiv-dinamik yondashuv, Kognitiv yondashuv, jismoniy, jinsiy, moddiy, psixologik zo'ravonlik.

**Аннотация.** В статье описан научно-психологический анализ насилия, его возникновение, конструктивные и деструктивные аспекты, виды.

**Ключевые слова.** Насилие, Психодинамический подход, Социодинамический подход, Фрустрационный подход, Когнитивно-неоассоциативный подход, Аффективно-динамический подход, Когнитивный подход, физическое, сексуальное, экономическое, психологическое насилие.

**Abstract.** The article describes the scientific and psychological analysis of violence, its emergence, constructive and destructive aspects, and types.

**Key words.** Violence, Psychodynamic approach, Sociodynamic approach, Frustration approach, Cognitive-neo-associative approach, Affective-dynamic approach, Cognitive approach, physical, sexual, material, psychological violence.

**Kirish.** Zo'ravonlik jamiyat rivojiga to'siq bo'luvchi asosiy salbiy illatlardan biri bo'lib, uning qurboni xoh yosh bola, xoh ayol yoki erkak bo'lsin ijtimoiy munosabatlarda inson huquqlarining buzilishi bilan belgilanadi. Har yili dunyo bo'ylab 1,6 milliondan ortiq odam zo'ravonlik tufayli halok bo'ladi.<sup>65</sup> Zo'ravonlik natijasida halok bo'lgan har bir kishi uchun ko'plab odamlar jarohat oladi va jismoniy, jinsiy, reproduktiv va ruhiy salomatlik muammolaridan aziyat chekadi. Xo'sh aslida zo'ravonlik nima?

<sup>65</sup> <https://www.who.int/teams/social-determinants-of-health/violence-prevention>

**Asosiy qism.** Jahon Sog'liqni saqlash tashkiloti tomonidan zo'ravonlikka quyidagicha ta'rif beriladi: "Zo'ravonlik - o'linga, psixologik zararga, noto'g'ri rivojlanishga yoki mahrumlikka sabab bo'luvchi o'ziga, boshqa shaxsga, guruhga yoki jamiyatga qarshi har qanday kuchni qasddan qo'llash, tahdid qilish yoki jarohat yetkazishlikdir." Psixologik tomondan bir qancha olimlar zo'ravonlikning tabiatini turlicha izohlaganlar. M. Fluri zo'ravonlikni "jismoniy, fiziologik yoki hissiy zo'ravonlik harakatlarining tahdidi yoki namoyon bo'lishi, ya'ni zarar yetkazish yoki bo'ysundirish maqsadida boshqa shaxsga qarshi kuchning har qanday turi" sifatida izohlagan bo'lsa, E.L.Genli, o'z navbatida, zo'ravonlikni "jismoniy, jinsiy va fiziologik hujumlar, shuningdek, iqtisodiy majburlashni o'z ichiga olgan tajovuzkor va majburlash xatti-harakati" sifatida baholagan. M.G. Botova zo'ravonlik haqida "shaxsga nisatan yo'q qilish, jazolash yoki ularning irodasiga qarshi nazorat qilish maqsadida kuch ishlatishni o'z ichiga olgan munosabatlarning alohida turi" deb ta'kidlaydi. E'tibor qaratilishi kerak bo'lgan jihat shundaki, zo'ravonlik shaxsga, ijtimoiy kuchga nisbatan qasddan jismoniy kuch yoki ruhiy bosim sifatida belgilanadi va tasodifiy holatda zarar yetkazishdan farqlanadi masalan, kimdir tasodifan yoki ehtiyotsizlik bilan yonida turgan odamni tirsagi bilan turtib yuborsa, bu zo'ravonlik harakati sifatida qaralishi mumkin emas, chunki uni amalga oshirish uchun oldindan qasd yo'q u bu odamga zarar yetkazish uchun hech qanday harakatga ega bo'lmagan. Zo'ravonlikning asosiy maqsadi - odamni biror narsani boshdan kechirish (masalan, xo'rlash, qo'rquv hissi) yoki uning xohishiga qarshi harakat yoki uni amalga oshirishga to'sqinlik qilishdir. A.I. Furmanov zo'ravonlik tushunchasini agressiya tushunchasi bilan bog'laydi va agressiyasiz zo'ravonlik bo'lmaydi, lekin har qanday agressiya ham zo'ravonlikka olib kelmaydi, deb hisoblagan. Bugungi kunga kelib, agressiv munosabatlar orqali zo'ravonlik paydo bo'lishining o'rganishga qaratilgan bir qancha psixologik yo'nalishlar mavjud:

1. Psixodinamik yondashuv (Z.Freyd, M.Klayn, A.Adler). Yondashuv doirasida inson xulq-atvori kuchli xohishlar bilan izohlanadi: jinsiy ehtiros (hayotga bo'lgan qiziqish, libido) va tajovuzkor (o'lim haydovchisi, tanatos) Agressiv moyillik

tajovuzkorlik va zo'ravonlikning rivojlanishi uchun asosdir. Ikki harakatning antagonistik tabiati tufayli ular doimiy ichki psixologik ziddiyat manbai hisoblanadi. Agressiya libido rivojlanishining barcha bosqichlarida mavjud bo'lib, hech qanday yo'l topolmasa, odamning zo'ravonlikka moyilligiga olib keladi.

2. Sotsiodianmik yondashuv (K.Xorni) Tamoyil doirasida agressiya shaxsning nevrotik himoya reaksiyasi sifatida baholanadi. Boladagi agressiya, agar u boshqalarning dushmanligini tan olgan va odatdagidek qabul qilganda, ongli yoki ongsiz ravishda o'zini himoya qilish va qasos olish uchun kurashishga qaror qilganda sodir bo'ladi. Ota-onalarning noto'g'ri xatti-harakatining natijasi kelajakdagi tajovuzkorlik va zo'ravonlikka moyillik uchun asos sifatida bolada bazaviy dushmanlikni shakllantiradi. Ota-onaga nisbatan dushmanlik jamiyatga nisbatan dushmanlikka aylanadi. K.Xorni konsepsiyasida tajovuzkor va sadizmga ega bo'lgan shaxslar ajralib turadi, ular boshqacha tabiatga ega, ammo ular zo'ravonlikka moyillik bilan ham birlashadi.

3. Frustratsiya yondashuvi (D.Dollard,N.Miller). Konsepsiya doirasida tajovuzkor xulq-atvor va zo'ravonlik ko'rinishlari tabiiy evolyutsion jarayon emas, balki situativ jarayon sifatida qaraladi. Agressiya frustratsiyaga reaksiya sifatida yuzaga keladi va vaziyatga qarab kuchayishi yoki pasayishi mumkin. Frustratsiya – maqsadga erishishga to'sqinlik qiluvchi barcha narsalardir. Agar shaxsning maqsadi kuchli motivatsiyalangan bo'lsa, u to'siqqa uchraganda frustratsiya kuchayishi mumkin.

4. Kognitiv-neoassotsiyaviy yondashuv (L.Berkovits). L.Berkovits fikriga ko'ra frustratsiya jahl va aggressiv harakat qilishga emotsional tayyorgarlikni keltirib chiqaradi.

5. Affektiv-dinamik yondashuv (I.A.Furmanov) Yondashuv doirasida agressiya insonning inqirozli sharoit va hayotiy faoliyat davomida moslashuvini ta'minlaydigan xulq-atvor modeli, zarur ehtiyojlarni qondirish usullaridan biri sifatida talqin etiladi. Agressiya barqaror shaxsiy xususiyat sifatida taklif etiladi. Agar to'g'ridan-to'g'ri faoliyat mavjud bo'lmasa, uning o'rnini bosuvchi harakatlarni

bajarish orqali muvozanatga erishiladi. Dominant tuyg'u g'azab bo'lsa, odam faol tajovuzkorlikni namoyon qiladi, agar hukmron tuyg'u qo'rquv bo'lsa, tajovuz passiv bo'ladi.

6. Xulq-atvor yondashuvi (A.Bandura). Shaxsning xulq-atvori unga ijobiy yoki salbiy munosabat bildirilishiga qarab shakllanadi. Shuningdek, zo'ravon xulq-atvor shakllarini kuzatish orqali bola taqlid va identifikatsiya mexanizmlaridan foydalangan holda o'xshash ijtimoiy vaziyatlarda o'zini o'xshash tarzda ifodalash tendentsiyasiga ega bo'ladi. Bundan tashqari, turli sohalarda shaxsning moslashuv muammolarini hal qilish usuli sifatida tajovuzkorlikdan foydalanish imkoniyatlari o'rganiladi.

7. Kognitiv yondashuv (A.Ellis). Tamoyil doirasida inson faoliyatining uchta asosiy psixologik jihati xatti-harakatlar fikrlash, his-tuyg'ular va sifatida belgilanadi. (A-B-C nazariyasi). Agar inson o'z fikrlash tarzini o'zgartirsa, uning hodisaga hissiy munosabati ham o'zgaradi va uning xatti-harakati o'zgarishi ehtimoli ham kata bo'ladi. Sog'lom va nosog'lom agressiya ajratiladi. Sog'lom tajovuz to'g'ri maqsadlarga erishishga yordam beradi (omon qolish, baxt, ijtimoiy qabul va yaqin munosabatlar). Nosog'lom tajovuz maqsadlarga erishishga to'sqinlik qiladi va turli shakllarda bo'lgan zo'ravonlik bilan namoyon bo'ladi. Kontseptsiyaga ko'ra, tajovuzkorlik dushmanlik va g'azab bilan birgalikda boshqa odamlarga hujum qilishga undaydi.

Yuqorida ko'rib chiqilgan yondashuvlar zo'ravonlikning rivojlanish mexanizmlari va shaxsning zo'ravonlikka moyilligi, o'z maqsadiga erishishda muammolarini hal etish yo'lidagi zo'ravonlik harakatlarini o'rganishga yordam beradi. Zamonaviy psixologlarning fikriga ko'ra, zo'ravonlik boshqa odamning sog'lig'i yoki hayotiga jismoniy zarar yetkazishdan ko'ra ancha kengroq tushunchadir. Bugun dunyoda zo'ravonlik turli shakl va turlarga bo'linadi. Hozirgi tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, ko'pincha boshqa shaxsning sog'lig'i va hayotiga bevosita ta'sir qilmaydigan zo'ravonlik bevosita jismoniy zo'ravonlikdan kam bo'lmagan salbiy oqibatlariga olib keladi.

Bugungi kunda zo'ravonlikning asosiy bir nechta turi farqlanadi:

1. Jismoniy

2. Jinsiy
3. Psixologik
4. Iqtisodiy

**Jismoniy zo'ravonlik** - tasodifiy bo'lmagan har qanday zarar shakli bo'lib, Kaltaklash, jismoniy izolyatsiya, odam o'g'irlash kabi hollarda namoyon bo'ladi. Ushbu jarohatlar o'limga, jiddiy (tibbiy yordamni talab qiladigan) jismoniy yoki aqliy zaiflashuvga yoki nogironlikka olib kelishi mumkin.

**Jinsiy zo'ravonlik.** Jinsiy zo'ravonlik nafaqat zo'rlash yoki zo'rlash tahdidida, balki, majburan teginish holatlarida namoyon bo'ladi. Jinsiy tajovuzkor - bu shaxsning xohishiga qarshi jinsiy harakatlarni amalga oshiradigan kishi.

**Psixologik (emotsional) zo'ravonlik** - insonning ruhiyatiga ta'sir qilish bo'lib, uning maqsadi shaxs irodasini bostirishdir. Bunday ma'naviy bosim jiddiy hissiy travma va ruhiy kasalliklar: depressiya, o'z joniga qasd qilish fikrlari, stress, tashvish, vahima hujumlariga olib keladi. Psixologik zo'ravonlik quyidagi tarzda namoyon bo'ladi:

- tahdid va qo'rqitish;
- haqorat va kamsitish;
- uyat va aybdorlik tuyg'ularini tarbiyalash;
- beparvolik va qasddan sovuqqonlik;
- ekspluatatsiya;
- majburiy izolyatsiya;
- hokimiyat yoki nazoratni amalga oshirishda namoyon bo'ladi.

Zo'ravonlikning bunday shaklida insonning moddiy manfaatlariga uning ma'naviy farovonligiga nisbatan haddan tashqari e'tibor berish natijasida kelib chiqadi. Psixologik zo'ravonlikning asosiy shakllari:

- asl psixologik (masalan, aybdorlik va uyat tuyg'ularini uyg'otish, doimiy tanqid qilish, jazo sifatida boykot qilish);
- og'zaki(verbal) (qichqiriq va to'g'ridan-to'g'ri haqorat) Ovoz balandligi va ohangidagi o'zgarishlarda, haqoratli so'zlar va iboralarda, tez-tez bo'linishlarda,

chalkashliklarda, tuhmat va qoralashlarda namoyon bo'ladi. Natijada, bir qarashda zararsiz, kulgili taxalluslar ba'zida norozilik va o'z-o'zidan pastlik tuyg'usini keltirib chiqaradi va bu ham shaxsga nisbatan zo'ravonlik sifatida baholanadi.

- ijtimoiy (ayolni tashqi olamdan uzish, uni izolyatsiya qilish va do'stlari bilan muloqot qilishni taqiqlash orqali jazolash);

**Moliyaviy (iqtisodiy)** zo'ravonlikda zo'ravon o'zini kamroq aniq salbiy narsalarda namoyon qiladi va ko'pincha tejamkorlik va oilaga g'amxo'rlik sifatida yashiriladi. Uning o'zi bu imtiyozlardan javobgarlik va cheklovlarsiz foydalanadi, barcha daromad manbalarini nazorat qilish tajovuzkor jabrlanuvchiga keladigan barcha daromadlar, aktivlar, sovg'alar, meros va ish haqi hisobini talab qiladi. U barcha bu imtiyozlarni faqat o'zining foydalanishiga o'tkazishga majbur qiladi. Ushbu talablarga rioya qilmaslik og'zaki, jismoniy, jinsiy yoki hissiy zo'ravonlik bilan jazolanadi.

Shuningdek, E.P.Ilin har qanday majburlovchi harakat ham zo'ravonlik deb baholanmasligini ta'kidlab, uning motiviga ahamiyat qaratish kerakligini bildirgan va konstruktiv(foydali) va destruktiv(buzg'unchi) tomonlarini ajratgan. Konstruktiv (foydali) jihatdan ota- onaning tarbiya jarayonida farzandini yomon illatlardan asrash maqsadida unga ma'lum qoidalarni o'rgatishi yoki ustozning o'quvchini bilim olishiga nisbatan talabi va h.k. Destruktiv(buzg'unchi) tomondan shaxsiy manfaatlari yo'lida shaxsning xohishiga qarshi undan foydalanish holatlari izohlanadi.

**Xulosa.** Zo'ravonlikni tushunish, uning oldini olishga intilish bugun har bir jamiyat a'zosining asosiy burchi bo'lib xizmat qiladi. Bugungi dunyo hamjamiyati tomonidan zo'ravonlikning oldini olish va unga qonuniy baho berish yuzasidan xalqaro huquq normalari ishlab chiqilgan bo'lib shaxs daxlsizligi ta'minlanishi nazorat etiladi. BMT tomonidan 2010-yilda Insonning tinchlikka bo'lgan huquqlari xalqaro kongressi tomonidan qabul qilingan "Insonning tinchlikka bo'lgan huquqlari to'g'risida"gi Santyago deklaratsiyasi inson huquqlari va tinchligi ta'minlanishining namunasi bo'lib kelmoqda. Deklaratsiyada "har bir shaxs, guruh, xalq va butun insoniyat ajralmas adolatli va doimiy tinchlik huquqiga ega" deb belgilangan. Agressiya, genotsid, irqchilik, irqiy kamsitish, ksenofobiya va shunga o'xshash murosasizlikning boshqa

shakllari, shuningdek, aparteid, mustamlakachilik va yangi mustamlakachilikka duchor bo'lgan har bir inson va xalq tinchlik huquqining buzilishi qurboni sifatida alohida e'tiborga loyiqdir (1-modda). O'zbekiston Respublikasi Konstitusiyasining 26-moddasida: "Hech kimning qiynoqqa solinishi, zo'ravonlikka, shafqatsiz yoki inson qadr-qimmatini kamsituvchi boshqa tarzdagi tazyiqqa duchor etilishi mumkin emas", deb qayd etilgan.

#### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:**

1. O'zbekiston Respublikasi yangi tahrirdagi konstitutsiyasi. 2023-yil 30-aprel <https://lex.uz/docs/-6445145>
2. Ильин, Е.П. Насилие как психологический феномен // Universum: Вестник Герценовского университета. 2013. №1. URL: <https://cyberleninka.ru/article/n/nasilie-kak-psihologicheskiy-fenomen>
3. <https://www.who.int/teams/social-determinants-of-health/violence-prevention>
4. [http://krotov.info/libr\\_min/05\\_d/ekl/arazia2011.htm](http://krotov.info/libr_min/05_d/ekl/arazia2011.htm)
5. Психологические проблемы агрессии в социальных отношениях: Монография / И.А. Фурманов [и др.] ; под науч. ред. И.А. Фурманова ; Брест, гос. ун-т им. А.С. Пушкина, Белорус, гос. ун-т. — Брест : БрГУ, 2014